

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirining
2020-yil 15 iyun dagi
144-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv rejalarini
tajriba-sinovdan o‘tkazish bo‘yicha
TAVSIYA**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu tavsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Xalq ta’limi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv rejalar **ixtiyoriy ravishda** joriy qilinadi.

2020-2021-o‘quv yilda ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ o‘quv rejalar joriy qilinmaydi.

2019-2020-o‘quv yilda variativ o‘quv reja joriy etilgan ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari davom ettiriladi.

3. Ushbu variativ o‘quv rejalar tegishli yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-8-9-10-11-sinflarida 2020-2021-o‘quv yili davomida tajriba-sinovdan o‘tkaziladi.

Bunda:

2019-2020-o‘quv yilda variativ o‘quv reja joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tajriba-sinov ishlari davom ettiriladi;

2019-2020-o‘quv yilda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinflarda tanlov sinfi tashkil etilgan bo‘lsa, 2020-2021-o‘quv yilda ushbu tanlov sinfining yo‘nalishini o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Quyidagi hollarda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv reja **joriy qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi:**

o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalardan norozichilik bo‘lsa;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv reja asosida o‘qitiladigan sinfga tegishli yo‘nalishga oid fandan (keyingi o‘rinlarda tanlov fani deb yuritiladi) dars berish uchun yetarli malaka va tajribaga ega o‘qituvchi bilan ta’milnagan bo‘lsa.

II. Variativ o‘quv rejaning maqsadi

5. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv rejalarini tajriba-sinovdan o‘tkazishning asosiy maqsadi:

o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quvchining manfaatlarini inobatga olish;

o‘quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish;

o‘quvchilarning individual xohish istaklari, qobiliyatlari asosida variativ o‘quv rejalgara muvofiq o‘quv jarayonini tashkil etish;

o‘quvchilarning kelgusida tanlaydigan kasblari bo‘yicha tegishli oliv ta’lim muassasalariga kirish imtihonlari mavjud fanlarni chuqur o‘rganishlariga sharoitlar yaratish;

mamlakatimizda masofaviy mehnat sohalarni rivojlantirishga ko‘maklashish, o‘quvchilarda zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun tegishli ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish.

III. Tajriba-sinovni tashkil etish tartibi

1-§. Tanlov sinfi

6. Tajriba-sinov o‘tkaziladigan umumiy o‘rta ta’lim maktabalarida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 25-fevraldagagi 52-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2020-2021-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja asosida o‘qitiladigan 7-8-9-10-11-sinflar (keyingi o‘rinlarda **an’anaviy sinf** deb yuritiladi) bilan birga, variativ o‘quv reja asosida o‘qitiladigan 7-8-9-10-11-sinflar (keyingi o‘rinlarda **tanlov sinfi** deb yuritiladi) tashkil etilishi mumkin.

7. Tanlov sinfi umumiy o‘rta ta’lim maktabida mavjud 7-8-9-10-11-sinflar o‘quvchilari kontingenti hisobidan tashkil etiladi.

Bunda, tanlov sinfidagi o‘quvchilar soni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida Nizomga muvofiq bo‘lishi lozim.

8. Umumiy o‘rta ta’lim maktabida tanlov sinfini tashkil etishda yuqori malakali, tajribali o‘qituvchilarning mavjudligi inobatga olinadi.

Agarda, tegishli yo‘nalish bo‘yicha belgilangan tanlov fani bo‘yicha yuqori malakali, tajribali o‘qituvchilar bo‘lmasa (faqatgina 1 ta fan bo‘yicha o‘qituvchi bo‘lgan taqdirda ham), tanlov sinfining tashkil etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

9. Umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-8-9-10-11-sinflarida tanlov sinfini tashkil etish uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

birinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *xorijiy til va filologiya yo‘nalishi*;

ikkinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *moliya – iqtisod yo‘nalishi*;

uchinchi yo‘nalish: 7-8-9-10-11-sinflar uchun - *web-frilanser (internet tarmog‘i orqali mehnat daromadi olish) yo‘nalishi*;

to‘rtinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *texnologiya yo‘nalishi*;

beshinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *tabiiy fanlar yo‘nalishi*;

oltinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish*;

yettinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi*;

sakkizinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *kimyo texnologiya yo‘nalishi*;

to‘qqizinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *geografiya va geologiya yo‘nalishi*;

o‘ninchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *maktabgacha ta’lim va psixologiya yo‘nalishi*;

o‘n birinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *tarix va arxeologiya yo‘nalishi*;

o‘n ikkinchi yo‘nalish: 10-11-sinf uchun - *turizm yo‘nalishi*.

10. Tanlov sinfida ta’lim jarayoni tegishli yo‘nalishi bo‘yicha namunaviy variativ o‘quv reja asosida tashkil etiladi.

11. Tanlov sinfi yo‘nalishi 7-8-9-10-11-sinflar kesimida o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali aniqlanadi. Tanlov sinfi yo‘nalishini aniqlashda o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilayotganda ota-onalar ham farzandlari bilan birga ishtiroy etishi mumkin. Bunda, bir nafar o‘quvchi faqat bitta yo‘nalishni tanlaydi.

Tajriba-sinov davrida umumiy o‘rtta ta’lim mактабида 2 tagacha yo‘nalishda tanlov sinflari ochilishi mumkin. Misol uchun, umumiy o‘rtta ta’lim mактабида 10-sinfda bitta yo‘nalishda, 11-sinfda bitta yo‘nalishda tanlov sinfi tashkil etilishi mumkin. Bunda, tanlov sinfi faqat bitta yo‘nalishni tanlaydi.

12. O‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish va natijasini umumlashtirish uchun mактабда tanlov komissiyasi tuziladi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga mактаб direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, psixolog, amaldagi sinf rahbarlari va fan metod birlashmalari rahbarlari kiritiladi.

Bunda, tanlov komissiyasi a’zolari tarkibiga o‘quvchilarning ota-onalari va tegishli yo‘nalishdagi fan o‘qituvchilari kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi (fan metod birlashmalari rahbarlari bundan mustasno).

13. So‘rovnomanı o‘tkazish va natijalarini umumlashtirish jarayonining shaffofligini ta’minlash, jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida ushbu jarayonlarda mактабning Kuzatuv kengashi a’zolari kuzatuvchi sifatida ishtiroy etishi mumkin.

14. So‘rovnoma natijasida tegishli tanlov sinfida o‘qishni xohlagan o‘quvchilar soni 35 nafardan oshib ketsa, bunday holda o‘quvchilar mактаб tomonidan tashkil etiladigan tegishli fan bo‘yicha sinov natijalari asosida tanlov sinfiga qabul qilinadi. Sinovdan o‘tolmagan o‘quvchi an’anaviy sinfda o‘qishini davom ettiradi.

Agarda tanlov sinfida o‘qishni xohlagan o‘quvchilar soni 35 nafardan ortiq bo‘lmasa, bunday holda o‘quvchilar tanlov sinfiga sinovsiz qabul qilinadi.

Lekin, so‘rovnoma natijasida tegishli tanlov sinfida o‘qishni xohlagan o‘quvchilar soni 25 nafardan kam bo‘lsa, tanlov sinfini tashkil etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

15. Ota-onalar tomonidan farzandlarini tanlov sinfiga qabul qilinishi to‘g‘risida direktor nomiga ariza yoziladi.

Tajriba-sinov davrida o‘quvchilarga o‘quv yili davomida tanlov sinfidan an’anaviy sinfiga yoki an’anaviy sinfdan tanlov sinfiga o‘tishiga **ruxsat beriladi**.

16. O‘quvchilar eng ko‘p tanlagen yo‘nalish bo‘yicha sinflar soniga mutanosib ravishda yangidan sinflarga ajratiladi. Bunda, sinflar soni mavjud tegishli (7-, 8-, 9-, 10-, 11-) sinflar sonidan oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

17. So‘rovnoma natijasi tahlil qilinib, tayyorlangan ma’lumot mактаб direktorining o‘quv ishlari bo‘icha o‘rinbosariga taqdim etiladi.

18. Mактаб direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari va fan metod birlashmalari rahbarlari tomonidan tanlov sinfi yo‘nalishi, fanlari, dars soati, o‘quvchilar ro‘yxati, sinf rahbari va mazkur fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilar to‘g‘risida ma’lumot tayyorlanadi.

19. Ushbu ma’lumot mактаб pedagogika kengashida muhokama qilinib, kengashda tanlov sinfi yo‘nalishi, fanlari, dars soati, fan o‘qituvchilari, sinf rahbarini belgilash, o‘quvchilar ro‘yxatini tasdiqlash bo‘yicha tegishli qaror qilinadi.

20. Pedagogika kengashi qarori bilan tasdiqlangan tanlov sinfi yo‘nalishidan kelib chiqib, tegishli fan metodika birlashmasi va direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan tanlov sinfining o‘quv rejasi tuziladi.

21. Tanlov sinfining variativ o‘quv rejasi mактаб direktori tomonidan tasdiqlanadi.

2-§. Majburiy fanlar

22. 10-11-sinflarning tanlov sinfida variativ o‘quv rejani tajriba-sinovdan o‘tkazishda quyidagi **9 ta majburiy fan** o‘qitiladi: Ona tili va adabiyot, O‘zbek tili/rus tili, Chet tili, Tarix, Tarbiya, Matematika, Informatika, Jismoniy tarbiya, Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik.

7-8-9-sinflarning tanlov sinfida variativ o‘quv rejani tajriba-sinovdan o‘tkazishda umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2020-2021-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejada belgilangan barcha fanlar **majburiy fanlar sifatida** o‘qitiladi.

23. Mazkur majburiy fanlarga ajratilgan soatlarning miqdori tayanch o‘quv rejada belgilangan miqdordan (7-8-sinflarda jami **31 soatdan**, 9-sinfda jami **32 soatdan**, 10-sinfda jami **22 soatdan**, 11-sinfda **21 soatdan**) kam bo‘lmasligi lozim.

24. Tanlov sinfi (7-8-9-10-11-sinflar)da majburiy fanlarga tayanch o‘quv rejada ajratilgan soatlar tushuntirish xatida qayd etilgan tartibda quyidagi taqsimot asosida o‘qitiladi:

“Ona tili va adabiyoti” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-9-sinflarda haftasiga 2 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani;

10-11-sinflarda haftasiga 1 soat “Ona tili” va 2 soat “Adabiyot” fani o‘qitiladi.

“O‘zbek tili/rus tili” fani uchun 7-8-9-10-11-sinflarda haftasiga 3 soatdan ajratilgan bo‘lib, ushbu fanlar quyidagicha taqsimot asosida o‘qitiladi:

ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan ta’lim muassasalarida “O‘zbek tili” fani 7-8-9-10-11-sinflarda 3 soatdan o‘qitiladi;

ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan ta’lim muassasalarida “Rus tili” 7-8-9-10-11-sinflarda 2 soatdan o‘qitiladi va qolgan 1 soat esa ushbu sinflarda “Ona tili va adabiyot” faniga qo‘sib beriladi.

Ta’lim qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman tillarida olib boriladigan maktablarda “Rus tili” fani o‘quvchilar va ota-onalarning xohishiga qarab, 7-8-9-10-11-sinflarda “Ona tili va adabiyot” fanidan 1 soat olinib, o‘qitilishi mumkin.

“Tarix” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-8-9-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani o‘quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 1 soatdan, 3-4-choraklarida haftasiga 2 soatdan, “Jahon tarixi” fani o‘quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 2 soatdan, 3-4-choraklarida haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

10-11-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, “Jahon tarixi” fani 1 soatdan o‘qitiladi.

“Tarbiya” fanini o‘qitish bosqichma-bosqich joriy qilinadi:

2020-2021-o‘quv yilida 7-9-sinflarda “Tarbiya” fani 1 soatdan;

10-11-sinflarda “Ma’naviyat asoslari” va “Dunyo dirlari tarixi” 0,5 soatdan, jami 1 soat o‘qitiladi.

“Matematika” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-11-sinflarda “Algebra” fani 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan o‘qitiladi.

“Geografiya va iqtisodiyot” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-8-9-sinflarda “Geografiya” fani 1,5 soatdan, 8-9-sinflarda “Iqtisodiy bilim asoslari” fani 0,5 soatdan o‘qitiladi.

Sport zali mavjud bo‘lмаган umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida qishki davr (dekabr, yanvar, fevral oylari)da 7-8-9-10-sinflarda “Jismoniy tarbiya” fani haftasiga 1 soat o‘qitiladi.

25. Tanlov sinfida O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirining 2020-yil 25-fevraldagagi 52-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan **tayanch o‘quv rejada belgilangan soatlar doirasida** quyidagi majburiy fanlarni o‘tishda 7-8-9-10-11-sinflardagi o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitishga ruxsat etiladi:

malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan 7-8-9-10-11-sinflarda “Chet tili”, “Informatika va axborot texnologiyalari”, ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lмаган umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “O‘zbek tili” hamda ta’lim tili rus tili bo‘lмаган umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Rus tili” fanlari, 8-9-10-11-sinflarda “Jismoniy tarbiya”, 7-9-sinflarda “Texnologiya” fanlari ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi.

3-§. Tanlov fanlari

26. O‘quvchilar tomonidan tanlangan yo‘nalishga oid fanlar tanlov fanlari hisoblanadi.

27. Tanlov sinfida majburiy fanlar bilan birga tanlov fanlari ham o‘qitiladi va tanlov fanlari uchun haftada 7-8-9-sinflarda jami **3 soatdan**, 10-sinfda jami **10 soat**, 11-sinfda **11 soat** ajratiladi.

28. Majburiy fanlarda belgilangan fanga tayanch o‘quv rejada ajratilgan soatga qo‘srimcha ravishda tegishli tanlov fani uchun ajratilgan soat qo‘sib o‘qitiladi.

Tanlov fanlariga ajratiladigan qo‘srimcha soatlarni o‘tishda ushbu fanlarning bo‘lib o‘qitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jumladan, tanlov fani sifatida tanlangan majburiy fanlar: “Chet tili”, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanlari **ikki guruhga bo‘lib o‘qitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi** (mazkur fanga tayanch o‘quv rejada ajratilgan soatlar bundan mustasno).

29. Tanlov sinfida tanlov fanlari uchun ajratilgan soatlarni yo‘nalishlar bo‘yicha tegishli fanlar uchun quyidagicha taqsimlash tavsija etiladi:

Xorijiy til va filologiya yo‘nalishida: 10-sinfda “Chet tili” fani 4 soat, “Ona tili va adabiyot” fani 6 soat, 11-sinfda “Chet tili” fani 5 soat, “Ona tili va adabiyot” fani 6 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-11-sinflarda** “Ona tili va adabiyot” faniga **6 soatdan** ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “Ona tili”, 3 soatida “Adabiyot” fani o‘qitiladi;

Moliya – iqtisod yo‘nalishida: 10-sinfda “Matematika” fani 6 soat, “Chet tili” fani 4 soat, 11-sinfda “Matematika” fani 6 soat, “Chet tili” fani 5 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-11-sinflarda** “Matematika” faniga **6 soatdan** ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “Algebra”, 3 soatida “Geometriya” fani o‘qitiladi;

Veb-frilanser (internet tarmog‘i orqali mehnat daromadi olish) yo‘nalishida:
“Chet tili” fani 7-8-9-sinflarda 1 soatdan, 10-11-sinflarda 3 soat;
“Matematika” fani 7-8-9-sinflarda 1 soatdan, 10-sinfda 3 soat, 11-sinfda 4 soat;
“Informatika va axborot texnologiyalari” fani 7-8-9-sinflarda 1 soatdan, 10-11-sinflarda 4 soatdan o‘qitiladi.

Bunda, **7-8-9-sinflarda** “Matematika” faniga **1 soatdan** ajratilgan bo‘lib, ushbu soatda “Algebra” fani o‘qitiladi.

10-sinfda “Matematika” faniga **3 soat** ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “Algebra”, 1 soatida “Geometriya” fani o‘qitiladi.

11-sinfda “Matematika” faniga **4 soat** ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “Algebra”, 2 soatida “Geometriya” fani o‘qitiladi;

Texnologiya yo‘nalishida: 10-sinfda “Matematika” fani 4 soat, “Fizika” fani 6 soat, 11-sinfda “Matematika” fani 5 soat, “Fizika” fani 6 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-sinfda** “Matematika” faniga **4 soat** ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “Algebra”, 2 soatida “Geometriya” fani, **11-sinfda** “Matematika” faniga **5 soat** ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “Algebra”, 3 soatida “Geometriya” fani o‘qitiladi;

Tabiiy fanlar yo‘nalishida: 10-sinfda “Biologiya” fani 4 soat, “Kimyo” fani 6 soat, 11-sinfda “Biologiya” fani 5 soat, “Kimyo” fani 6 soat o‘qitiladi;

Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishida: 10-sinfda “Tarix” fani 5 soat, “Ona tili va adabiyot” fani 5 soat, 11-sinfda “Tarix” fani 6 soat, “Ona tili va adabiyot” fani 5 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-sinfda** “Tarix” faniga **5 soat** ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “O‘zbekiston tarixi”, 2 soatida “Jahon tarixi” fani, **11-sinfda** “Tarix” faniga 6 soat ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “O‘zbekiston tarixi”, 3 soatida “Jahon tarixi” fani o‘qitiladi;

10-11-sinflarda “Ona tili va adabiyot” faniga **5 soatdan** ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “Ona tili”, 2 soatida “Adabiyot” fani o‘qitiladi;

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi: **10-sinfda** “Matematika” fani 4 soat, “Ona tili va adabiyot” fani 6 soat, **11-sinfda** “Matematika” fani 5 soat, “Ona tili va adabiyot” fani 6 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-sinfda** “Matematika” faniga **4 soat** ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “Algebra”, 2 soatida “Geometriya” fani, **11-sinfda** “Matematika” faniga 5 soat ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “Algebra”, 2 soatida “Geometriya” fani o‘qitiladi;

10-11-sinflarda “Ona tili va adabiyot” faniga 6 soatdan ajratilgan bo‘lib, 4 soatida “Ona tili”, 2 soatida “Adabiyot” fani o‘qitiladi;

Kimyo texnologiya yo‘nalishi: **10-sinfda** “Matematika” fani 3 soat, “Kimyo” fani 7 soat, **11-sinfda** “Matematika” fani 4 soat, “Kimyo” fani 7 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-sinfda** “Matematika” faniga 3 soat ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “Algebra”, 1 soatida “Geometriya” fani, **11-sinfda** “Matematika” faniga 4 soat ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “Algebra”, 2 soatida “Geometriya” fani o‘qitiladi;

Geografiya va geologiya yo‘nalishi: **10-sinfda** “Matematika” fani 4 soat, “Geografiya” fani 6 soat, **11-sinfda** “Matematika” fani 5 soat, “Geografiya” fani 6 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-sinfda** “Matematika” faniga 4 soat ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “Algebra”, 2 soatida “Geometriya” fani, **11-sinfda** “Matematika” faniga 5 soat ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “Algebra”, 2 soatida “Geometriya” fani o‘qitiladi;

Maktabgacha ta’lim va psixologiya yo‘nalishi: **10-sinfda** “Ona tili va adabiyot” fani 4 soat, “Biologiya” fani 6 soat, **11-sinfda** “Ona tili va adabiyot” fani 5 soat, “Biologiya” fani 6 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-sinfda** “Ona tili va adabiyot” faniga 4 soat ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “Ona tili”, 2 soatida “Adabiyot” fani, **11-sinfda** “Ona tili va adabiyot” faniga 5 soat ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “Ona tili”, 2 soatida “Adabiyot” fani o‘qitiladi;

Tarix va arxeologiya yo‘nalishi: **10-sinfda** “Geografiya” fani 6 soat, “Tarix” fani 4 soat, **11-sinfda** “Tarix” fani 6 soat, “Chet tili” fani 5 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-sinfda** “Tarix” faniga 4 soat ajratilgan bo‘lib, 2 soatida “O‘zbekiston tarixi”, 2 soatida “Jahon tarixi” fani o‘qitiladi;

11-sinfda “Tarix” faniga 6 soat ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “O‘zbekiston tarixi”, 3 soatida “Jahon tarixi” fani o‘qitiladi.

Turizm yo‘nalishi: **10-sinfda** “Tarix” fani 5 soat, “Chet tili” fani 5 soat, **11-sinfda** “Tarix” fani 6 soat, “Chet tili” fani 5 soat o‘qitiladi.

Bunda, **10-sinfda** “Tarix” faniga 5 soat ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “O‘zbekiston tarixi”, 2 soatida “Jahon tarixi”, **11-sinfda** “Tarix” faniga 6 soat ajratilgan bo‘lib, 3 soatida “O‘zbekiston tarixi”, 3 soatida “Jahon tarixi” fani o‘qitiladi.

30. Tanlov fani bo‘yicha qo‘srimcha ajratilgan soatlarda quyidagilar amalgalashiriladi:

o‘quvchilarga fanlarni chuqur o‘rgatish va tegishli mavzularga doir qo‘srimcha ma’lumotlar berish;

o‘quvchilar bilimini mustahkamlash va mavzularni to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash;

“Khan Academy O‘zbek – online ta’lim platformasi” ta’lim resurslaridan foydalanish;

qo‘srimcha adabiyotlardan misol va masalalar, testlar (DTM saytidagi namunaviy testlar) yechish;

oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini jalb qilish;

o‘quvchilarni oliy ta’lim muassasalarining kirish imtihonlariga tayyorlash.

31. Tanlov fanlarini chuqur o‘rgatishda darsliklardan tashqari, qo‘srimcha adabiyot va manbalardan foydalanish mumkin.

Bunda, mualliflik o‘quv dasturlaridan amaliyotda foydalanishga Respublika ta’lim markazi tomonidan ekspertizadan o‘tkazilgan taqdirda ruxsat etiladi.

IV. Yakuniy qoidalar

32. Tanlov sinfida majburiy va tanlov fanlari o‘qitiladi.

Bunda:

Xorijiy til va filologiya yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 9 ta fan;

Moliya – iqtisod yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 9 ta fan;

Veb-frilanser (internet tarmog‘i orqali mehnat daromadi olish) yo‘nalishi – 7-8-9-sinflar: tanlov sinfida jami 15 ta fan, 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 9 ta fan;

Texnologiya yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 10 ta fan;

Tabiiy fanlar yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 11 ta fan;

Ijtimoiy - gumanitar yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 9 ta fan;

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 9 ta fan;

Kimyo texnologiya yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 10 ta fan;

Geografiya va geologiya yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 10 ta fan;

Maktabgacha ta’lim va psixologiya yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 10 ta fan;

Tarix va arxeologiya yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 10 ta fan;

Turizm yo‘nalishi – 10-11-sinflar: tanlov sinfida jami 9 ta fan.

33. Tanlov sinfini tashkil etish yoki uni tugatish mакtabning pedagogika kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
 Xalq ta’limi vazirining
 2020 yil “___” ____ dagi
 -sonli buyrug‘iga
 2-ILOVA

**2020-2021-o‘quv yili davomida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida
 tajriba-sinovdan o‘tkaziladigan namunaviy
 variativ o‘quv rejalar**

1. Xorijiy til va filologiya yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Ona tili va adabiyot	6	6
2.	Chet tili	4	5
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

2. Moliya-iqtisod yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Matematika	6	6
2.	Chet tili	4	5
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

3. Veb-frilanser (internet tarmog'i orqali mehnat daromadi olish) yo'nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o'quv rejasi

7-8-9-sinflar uchun

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati		
		7-sinf	8-sinf	9-sinf
Majburiy fanlar				
1	Ona tili va adabiyot	4	4	4
2	O'zbek tili/rus tili	3	3	3
3	Chet tili	3	3	3
4	Tarix	3	3	3
5	Davlat va huquq asoslari		1	1
6	Tarbiya	1	1	1
7	Matematika	5	5	5
8	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	2
9	Fizika	2	2	2
10	Kimyo	2	2	2
11	Biologiya	2	2	2
12	Geografiya va iqtisodiyot	1,5	2	2
13	Musiqa madaniyati	1		
14	Tasviriy san'at va chizmachilik	1	0,5	0,5
15	Texnologiya	0,5	0,5	0,5
16	Jismoniy tarbiya	1	1	1
Jami		31	31	32
Tanlov fanlari				
1	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1
2	Chet tili	1	1	1
3	Matematika	1	1	1
Jami		3	3	3
Umumiy haftalik soati		34	34	35

10-11-sinflar uchun

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O'zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Informatika va axborot texnologiyalari	4	4
2.	Chet tili	3	3
3.	Matematika	3	4
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

4. Texnologiya yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Matematika	4	5
2.	Fizika	6	6
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

5. Tabiiy fanlar yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Biologiya	4	5
2.	Kimyo	6	6
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

6. Ijtimoiy - gumanitar yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Tarix	5	6
2.	Ona tili va adabiyot	5	5
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

7. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Matematika	4	5
2.	Ona tili va adabiyot	6	6
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

8. Kimyo texnologiya yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Matematika	3	4
2.	Kimyo	7	7
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

9. Geografiya va geologiya yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Matematika	4	5
2.	Geografiya	6	6
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

10. Maktabgacha ta’lim va psixologiya yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Ona tili va adabiyot	4	5
2.	Biologiya	6	6
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

11. Tarix va arxeologiya yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Geografiya	6	
2.	Tarix	4	6
3.	Chet tili		5
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32

12. Turizm yo‘nalishidagi tanlov sinfining namunaviy o‘quv rejasi

T/r	Fanlar nomi	Haftalik soati	
		10-sinf	11-sinf
Majburiy fanlar			
1.	Ona tili va adabiyot	3	3
2.	O‘zbek tili/rus tili	3	3
3.	Chet tili	3	3
4.	Tarix	2	2
5.	Tarbiya	1	1
6.	Matematika	5	5
7.	Informatika va axborot texnologiyalari	2	2
8.	Jismoniy tarbiya	2	1
9.	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik	1	1
jami		22	21
Tanlov fanlari			
1.	Tarix	5	6
2.	Chet tili	5	5
jami		10	11
Umumiy haftalik soati		32	32